



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlariga ma’muriy-boshqaruv, pedagog xodimlar va metodistlarni, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida ishga qabul qilish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv xodimlarini tanlov asosida qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi komissiyasi tarkibi 2-ilovaga;

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv xodimlarini tanlov asosida qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi apellatsiya komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari (keyingi o‘rinlarda — Tashkilotlar) ma’muriy-boshqaruv (direktor va direktor o‘rinbosarlari bundan mustasno) va pedagog xodimlarni, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish uchun professional va malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda tashkilot komissiyalari

tarkibini tasdiqlasin.

3. Tashkilotlarga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish mazkur nizom asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i va fan metodistlarini tanlab olish to'g'risida" 2023-yil 15-martdagi 61-son buyrug'i bekor qilinsin.

5. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil 6 - sentabr,
297-son

**Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy
rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga
ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida
qabul qilish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi 52-2023/B-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Ishga qabul qilish chog'ida tanlov o'tkazish to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tizimidagi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari (keyingi o'rinlarda – Tashkilot)ga ma'muriy-boshqaruv, pedagog xodimlar va metodist, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Vazirlik tizimidagi tashkilotlarga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar lavozimlariga tanlov (keyingi o'rinlarda – Tanlov) chuqur kasbiy bilimlar va ilmiy yutuqlarga, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyat va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, professional, malakaviy va zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislarni raqobat asosida saralab olish maqsadida o'tkaziladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

nomzod – tashkilotdagi bo'sh (vakant) bo'lgan lavozimni egallash uchun tanlovda ishtirok istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – muayyan lavozimda faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

ma'muriy-boshqaruv xodimlar lavozimlari – rektor, prorektor, direktor, direktor o'rinbosari, ilmiy kotib, bosh hisobchi, bosh yuriskonsult, bo'lim boshlig'i, bosh mutaxassis, ilmiy kotib, matbuot kotibi, metodist;

pedagog xodimlar – kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, o'qituvchi-stajyor.

4. Mazkur Nizom tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazilayotganda ham qo'llaniladi, bundan unga teng bo'lgan yoki quyi lavozimni taqdim etish hollari mustasno.

2-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

5. Ish beruvchi tanlovni tashkilotdagi bo'sh (vakant) ish o'rnini uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etadi va o'tkazadi.

Ishga qabul qilish chog'ida tanlov tashkilot tizimida mavjud bo'sh (vakant) ish o'rinlaridan kelib chiqqan holda yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

6. Ishga qabul qilish chog'ida tanlovning o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlash uchun vazirlik yoki tashkilot rahbarining buyrug'i bilan doimiy faoliyat yuritadigan tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda - Tanlov komissiyasi) tashkil etiladi.

Rahbar xodimlar (rektor, rektor o'rinbosarlari, direktor va direktor o'rinbosarlari) uchun tanlovni tashkil qilish va o'tkazish uchun Vazirlik Tanlov komissiyasi, tashkilotlarda ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar tanlovini tashkil qilish va o'tkazish uchun tashkilot Tanlov komissiyalari kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, tashkilot rahbari yoki uning o'rinbosari Tanlov komissiyasi raisi hamda tashkilotning inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha tarkibiy bo'linmasi rahbari yoki bunga mas'ul xodimi Tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga nomzodning yaqin qarindoshi yoki tanlovning natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan yoxud tanlovning xolis o'tkazilishiga ta'sir ko'rsatadigan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

7. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

tanlov o'tkazish vaqtini belgilash;

tanlovning sifatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida komissiya tarkibiga professional va malakali mutaxassislarni jalb qilish;

malakali kadrlarning tanlab olinishini ta'minlash maqsadida tanlov tadbirlari o'tkazilish jarayonini nazorat qilish.

Tanlov komissiyasi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish;

nomzodning shaxsga doir ma'lumotlarini uning roziligisiz oshkor qilmaslik;

tanlovni o'tkazish vaqtida nomzodlarga beriladigan savollarni sifatli va bo'sh (vakant) ish o'rnini uchun belgilangan malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilishini ta'minlash.

8. Tashkilotlardagi ma'muriy-boshqaruv xodimlari va pedagog xodimlar lavozimlarini egallash ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda faqat tashkilot xodimlari, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talablariga javob beradigan barcha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etish huquqiga ega.

9. Tashkilotlarga xorijiy mutaxassislar ham tanlov asosida ishga ushbu Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda qabul qilinadi.

10. Quyidagi shaxslarga Tanlovda qatnashishga ruxsat berilmaydi:

qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar;

qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

ma'lumoti tegishli lavozimning malaka talablariga to'g'ri kelmaydigan shaxslar;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasalliklar ro'yxatiga muvofiq pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar;

psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar;

Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar;

Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar.

11. Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan tanlov tadbirlari o'tkazilishidan kamida bir oy oldin tashkilotning rasmiy veb-saytida vakant ish o'rinlari bo'yicha ma'lumotlar (vakant ish o'rni va unga qo'yiladigan malaka talablari, lavozim majburiyatlari, ish haqi) hamda tanlov o'tkazish joyi va kunlari, tanlov tadbirlarida berilishi mumkin bo'lgan savollarning namunaviy ro'yxati joylashtiriladi.

12. Nomzodlarda ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga), ilmiy unvon, shuningdek ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirganlik to'g'risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

13. Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida tashkilotga kirish joylarida nomzodlarni saralash tartibi, ularga qo'yiladigan talablar haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan axborot stendlari majburiy tartibda joylashtirilishi lozim.

14. Nomzodlar Tanlov komissiyasiga mazkur nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza bilan yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodning arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida unda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rganib chiqiladi.

Nomzod tomonidan ariza va ma'lumotlar mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq taqdim etilmagan bo'lsa yoki arizada tegishli ma'lumotlar to'liq ko'rsatilmagan yoxud noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodga kamchiliklarni bartaraf etib, qayta murojaat qilish mumkinligi to'g'risida ushbu ariza kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda ma'lum qilinadi.

Tanlov tadbirlari boshlanishiga besh ish kunidan kam muddat qolganda murojaat qilgan nomzodlar ushbu tanlovda emas, balki keyingi tanlovda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

15. Tanlovda qatnashish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan nomzodlarga tanlov tadbirlari boshlanishidan besh kun oldin tanlov tadbirlarining boshlanish vaqti va joyi haqida Tanlov komissiyasi tomonidan xabar beriladi.

Nomzodga kamchiliklarni bartaraf etib, qayta murojaat qilish mumkinligi yoki tanlov tadbirlari boshlanishi haqida nomzod arizasida qoldirilgan mobil yoki xizmat telefoni orqali ma'lum qilinganda xabar berilganligi to'g'risida bog'lanish usuli, sanasi hamda vaqtini ko'rsatgan holda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

16. Tanlov ma'muriy-boshqaruv xodimlar lavozimlari uchun quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- tanlovning o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;
- nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish;
- suhbat o'tkazish;
- tanlov natijalarini e'lon qilish.

17. Pedagog xodimlar lavozimlari uchun tanlov quyidagi bosqichlardan amalga oshiriladi:

- tanlovning o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;
- nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish;
- suhbat va tegishli fan (o'quv moduli) bo'yicha sinov darsni o'tishi;
- tanlov natijalarini e'lon qilish.

18. Kasbga layoqatlik va mutaxassislik bo'yicha suhbat savollari ta'lim sohasida davlat siyosati, ta'limdagi islohotlar, pedagoglarni kasbiy rivojlantirish tizimi va tanlov o'tkazilayotgan lavozimning xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

19. Pedagog xodimlar lavozimlariga talabgor tomonidan tegishli fanning muayyan mavzusi bo'yicha o'tilgan sinov darsi 25 ballik tizimda baholanadi.

20. Tanlov davlat tilida, shuningdek nomzodning so'roviga ko'ra u tanlagan xorijiy tilda o'tkazilishi mumkin.

21. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga talabgorlar tomonidan mobil

aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lugʻat, daftar va boshqa materiallarni olib kirish hamda ulardan foydalanish, shuningdek, boshqa talabgorlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek, tanlov vaqtida boshqa talabgorlar bilan suhbatlashgan talabgor tanlovni oʻtkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda dalolatnoma asosida tanlovdan chetlashtiriladi.

Komissiya aʼzolarining ruxsati bilan sinov darslarida foydalanish uchun kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari olib kirilishi mumkin.

22. Tanlovning suhbat bosqichida nomzod tomonidan savollar 5 ta savoldan iborat bilet shaklida ixtiyoriy tarzda tanlanadi.

Savollarga berilgan javoblarga aniqlik kiritish maqsadida talabgorga nomzodga qoʻshimcha savollar berilishi mumkin.

Savollarga berilgan javoblar mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi. Bunda, tanlov komissiyasi aʼzolarining nomzodga qoʻygan ballarining oʻrtacha (oʻrta arifmetik) qiymati hisoblangan holda yakuniy natija aniqlanadi.

23. Pedagog xodimlar lavozimiga nomzod tomonidan fanning muayyan mavzusi boʻyicha oʻtilgan sinov darsini baholashga Tanlov komissiyasi tomonidan 2 nafargacha ekspertlar jalb qilinishi mumkin. Bunda, ekspertlarning xulosasi Tanlov komissiyasiga oʻqib berilgan holda tanishtiriladi.

Nomzodning sinov darsi mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi.

24. Nomzodlarning yakuniy natijalari tanlov komissiya aʼzolari tomonidan qoʻyilgan ballarning umumiy natijalarining oʻrtacha (oʻrta arifmetik) qiymatini hisoblagan olgan holda aniqlanadi va yigʻilishda ishtirok etgan barcha aʼzolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Nomzodlarning umumiy ballari teng boʻlib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi tomonidan qoʻshimcha savol yoki topshiriq beriladi hamda topshiriqqa muvofiq ilovalardagi mezonlar asosida baholanadi..

25. Tanlovning oshkora va xolis oʻtkazilishini taʼminlash maqsadida tanlov jarayonlari ovozli videoyozuvda qayd qilinadi. Videoyozuv tashkilotda olti oy davomida saqlanadi. Videoyozuv apellyatsiya komissiyasi yoki sud organlarining talabiga koʻra taqdim etiladi.

3-bob. Tanlov natijalarini eʼlon qilish va mehnat shartnomalarini tuzish

26. Tanlovning natijalariga koʻra 56 balldan kam natijaga ega boʻlgan nomzod tanlovdan oʻtmagan deb hisoblanadi.

27. Bir lavozimga ikki va undan ortiq nomzodlar ishtirok etganda tanlov natijalari to'plangan ballar soniga muvofiq tanlov nomzodlarning reytingi shaklida Tanlov komissiyasi bayonnomasiga kiritiladi.

Bunda, eng ko'p ball to'plagan nomzodlar tanlov g'oliblari deb e'tirof etiladi.

28. Tanlov komissiyasi bayonnomasi tanlov o'tkazilgan kuni yig'ilishda ishtirok etgan komissiya raisi, rais o'rinbosari, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

29. Tanlov komissiyasi:

tanlov g'oliblari aniqlangan sanadan boshlab uch ish kuni mobaynida talabgorlarni nomzodlarni tanlov natijalari to'g'risida xabardor qiladi;

tanlov g'oliblari bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish yuzasidan ish beruvchiga taklif kiritadi.

30. Tanlov g'olibi mehnat shartnomasi tuzishni rad etgan taqdirda, reytingda keyingi o'rinda turgan nomzod bilan mehnat shartnomasini tuziladi. Reytingda keyingi o'rinda turgan nomzodlar mehnat shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, lavozim qaytadan e'longa beriladi.

4-bob. Xorijiy mutaxassislarni tanlov asosida ishga qabul qilish

31. Xorijiy mutaxassislarning tanlovda ishtirok etishi uchun nomzod tomonidan fuqarolik pasporti, oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplom nusxasi, ilmiy daraja va unvonlari (agar bo'lsa) haqidagi diplomlari nusxalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

32. Xorijiy mutaxassislarni tanlash (yollash) Tanlov komissiyasi tomonidan suhbat tarzida amalga oshiriladi.

Suhbat natijalariga asosan munosib topilgan xorijiy mutaxassis bilan bir yilgacha bo'lgan muddatga mehnat shartnomasi rasmiylashtiriladi.

33. Vazirlik tomonidan tuzilgan shartnomalar va kelishuvlar asosida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarga vazirlikning tavsiyasiga ko'ra ishga tanlovsiz qabul qilinishi mumkin.

5-bob. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish

34. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlari kamida besh nafar mutaxassislardan iborat tarkibda tuzilgan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bunda, Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan ham mutaxassislarning kelishuv asosida jalb etilishi mumkin.

Tanlovni o'tkazishga mas'ul bo'lgan shaxslarning Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

35. Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya shikoyati berishlari mumkin.

Bunda, Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan talabgorni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida ogohlantiradi.

36. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini, u kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddat ichida ko'rib chiqadi. Bunda, apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan nomzod mazkur shikoyatni ko'rib chiqishda qatnashishi mumkin.

37. Apellyatsiya komissiyasi unda a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Apellyatsiya komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlarning soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Apellyatsiya komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

38. Apellyatsiya komissiyasi tanlov jarayonida nomzodning bergan javoblari va sinov darslari videotasvirlarni ko'rish orqali tekshiruvdan o'tkazadi.

Apellyatsiya komissiyasi tomonidan apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish davomida nomzodga uni qayta baholashga qaratilgan savollar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

39. Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

tanlov natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

tanlov natijalariga o'zgartirish kiritish va nomzodni tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topish.

Apellyatsiya shikoyatini ko'rishda nomzodning tanlovda olgan natijasini pasaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

40. Apellyatsiya komissiyasining tanlov natijalariga o'zgartirish kiritish va nomzodni tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topish to'g'risidagi qarori asosida u bo'sh vakant ish o'rni uchun ishga tavsiya etilgan deb hisoblanadi.

41. Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan nomzod yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoida

42. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni
tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida
nizomga
1-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni
amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog
xodimlarni o'tkazishda tashkilotga nomzod tomonidan taqdim etiladigan ariza**

Tanlov komissiyasiga

1.	Ariza beruvchi nomzodning F.I.O:	
2.	Yashash manzili (respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul, ko'cha xonadon raqami) to'liq ko'rsatiladi):	
3.	JSHIR raqami:	
4.	Pasport yoki ID-karta ma'lumotlari: (seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)	
5.	Bog'lanish uchun telefon:	
6.	Ma'lumoti: (umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy)	
7.	Tugatgan ta'lim muassasasining nomi:	
8.	Diplom (shahodatnoma) bo'yicha mutaxassisligi, uning seriyasi, raqami, berilgan sanasi va bergan ta'lim muassasasining nomi:	
9.	Malaka oshirganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (qachon va qaysi tashkilot tomonidan berilgani, seriyasi va raqami, qaysi mavzu bo'yicha malaka oshirganligi) (agar mavjud bo'lsa):	
10.	Malaka toifasiga ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar (qachon va qaysi tashkilot tomonidan berilgani, seriyasi va raqami, qaysi ixtisoslik bo'yicha toifa berilgani) (agar mavjud bo'lsa):	
11.	Umumiy ish staji (agar mavjud bo'lsa), shundan bo'sh (vakant) ish o'rni uchun talab etiladigan mutaxassislik bo'yicha:	
12.	Tanlovdagi ariza topshirilayotgan lavozim nomi:	
13.	Ariza to'ldirilgan sana:	
14.	Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga roziligi (ariza beruvchi shaxsning imzosi):	

Ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni
tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida
nizomga
2-ILOVA

**Tanlovda talabgorlarning savollarga bergan
javoblarini baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Me'yor	Savollarga javoblar bahosi				
			1	2	3	4	5
1.	Talabgor savolga to'liq va aniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida mustaqil foydalanishni biladi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila oladi	5					
2.	Talabgor savolga aniq, biroq to'liq javob bermadi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni biladi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila oladi	4					
3.	Talabgor savolga to'liq javob bermadi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni biladi	3					
4.	Talabgor savolga noaniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni bilmaydi	2					
5.	Talabgor savolga noaniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega emas	1					
6.	Talabgor savollarga umuman javob bermadi	0					
	Savollarga javoblarning baholari (ballari)		b₁	b₂	b₃	b₄	b₅
	Suhbatning umumiy bahosi	0-75	b₁+b₂+b₃+b₄+b₅				

Ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni
tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida
nizomga
3-ILOVA

Talabgorlarning sinov darslarini baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Me'yor	Qo'yilgan ball
1.	Dars mavzusi va maqsadining qo'yilishi	0-2,5	
2.	Talabgorning darsga tayyorgarligi, bayon qilinayotgan materialning to'liqligi, izchilligi va tushunarliqligi, asosiy tushunchalarning ajratilganligi	0-2,5	
3.	Darsda pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi	0-2,5	
4.	Tinglovchilarning faolligini oshirish (muammoli vaziyatlardan chiqish, o'quv jarayonini faollashtirish)	0-2,5	
5.	Tinglovchilarni mustaqil ishlashga jalb qilinishi va usullari	0-2,5	
6.	Darsda AKT vositalaridan foydalanish, darsning ko'rgazmaliligi	0-2,5	
7.	Darsning uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi	0-2,5	
8.	Tinglovchilarning yangi mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish usullari, ularning samaradorligi	0-2,5	
9.	Talabgorning pedagogik mahorati, nutq madaniyati	0-2,5	
10.	Darsning maqsadiga erishilganlik	0-2,5	
	Jami ballar miqdori	0-25	

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “6”-sentabrdagi 297-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni
amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv xodimlarni tanlov
asosida qabul qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi komissiyasi tarkibi**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi, o‘rni*
1.	Radjabov Sardor Baxtiyorovich	Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi
2.	Yuldashev Maksudjan Abdullayevich	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Yuldashev Abdumalik Mardiyevich	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig‘i, a‘zo
4.	Sharipov Ilyosbek Ilxomovich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a‘zo
5.	Baxramov Anvar Axrarovich	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a‘zo
6.	Abduraxmonov Alisher Oybekovich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib

*Komissiya a‘zosi boshqa lavozimga o‘tganda yoki lavozimdan ozod etilganda uning o‘rniga tayinlanadigan xodim bevosita ushbu komissiya a‘zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “6”-sentabrdagi 297-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni
amalga oshiruvchi davlat ta’lim muassasalariga ma’muriy-boshqaruv xodimlarni tanlov
asosida qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi apellatsiya komissiyasi tarkibi**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi, o‘rni*
1.	Boqiyev Farxod Esanovich	Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi
2.	Eshqobilov Isroil Abdig‘apporovich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a‘zo
3.	Kuchkarova Nargiza Sharafjanovna	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a‘zo
4.	Qodirov Sirojiddin Raxmonovich	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a‘zo
5.	Xudaybergenov Eldor Raximberdi o‘g‘li	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi bosh mutaxassisi, a‘zo
6.	Akramova Dilrabo Uchkunovna	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib

*Komissiya a‘zosi boshqa lavozimga o‘tganda yoki lavozimdan ozod etilganda uning o‘rniga tayinlanadigan xodim bevosita ushbu komissiya a‘zosi hisoblanadi.